



Korxonalarning moliyaviy hisobotlari va ulardagi ko'rsatkichlar tahlili

**Jurayev Xurshid
Mamatkulovich**

BMA magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishning statistik usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu ishning asosiy maqsadi - tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini baholash va prognoz qilish uchun statistik yondashuvlarni ishlab chiqish va asoslashdan iborat. Tadqiqotda korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishning mavjud usullari ko'rib chiqiladi va ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Korrelyatsiya-regressiya tahlili, omillar tahlili va klasterlash usullarini o'z ichiga olgan, korxonalarning moliyaviy faoliyatini baholash uchun moslashtirilgan kompleks statistik vositalar to'plami taklif etiladi. Ishning amaliy ahamiyati iqtisodiyotning turli sohalarida korxonalarning moliyaviy barqarorligini monitoring qilish va boshqarishning ishlab chiqilgan usullarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar:

moliyaviy ko'rsatkichlar, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to'lov qobiliyati, statistik modellash, moliyaviy rejalashtirish, debitor va kreditorlik qarzlari.

Analysis of financial statements of enterprises and indicators contained therein

Jurayev Khurshid Mamatkulovich

BFA master's student

Annotation: This article discusses statistical methods for analyzing the financial condition of small enterprises. The main purpose of this work is to develop and substantiate statistical approaches for assessing and forecasting the financial stability of organizations.

The study examines existing methods for analyzing the financial condition, identifying their advantages and disadvantages.

A comprehensive statistical toolkit is proposed, including methods of correlation-regression analysis, factor analysis and clustering, adapted for assessing the financial performance of enterprises. The practical significance of the work lies in the possibility of using the developed methods to monitor and manage the financial stability of enterprises in various sectors of the economy.

Key words: financial indicators, financial stability, liquidity, solvency, statistical modeling, financial planning, receivables and creditor debts. Bugungi kunda mamlakatimiz bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu esa o'z navbatida raqobatning kuchayishi sharoitida korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Kirish. Tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi ularning raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va uzoq muddatli rivojlanish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tadqiqotlari tendentsiyalarni aniqlash, xavflarni baholash va boshqaruvning oqilona strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan moliyaviy tahlil usullari ko'pincha zamonaviy tez o'zgaruvchan bo'lgan iqtisodiy voqelikni va turli tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Bu esa o'z navbatida korrelyatsion-regression tahlil, omilli tahlil va klasterlash kabi statistik usullarni ishlab chiqish va korxonalarining moliyaviy ma'lumotlarini tahlil qilishga moslashtirish baholarning to'g'riligi va qabul qilingan qarorlar samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustivor yo'nalish va maqsadlarda ham mahsulot tannarxini o'rtacha 20 foizga pasaytirish hamda korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash, foyda bilan ishlashni ta'minlash vazifalari alohida belgilab berilgan («2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi» strategiyasi, 2022).

O'zbekiston Respublikasida hisobotlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan, shu jumladan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasi bilan tartibga solinadi. Moddada moliyaviy hisobot shakliga nimalarni kiritilishi nazarda tutilgani to'g'risida batafsil to'xtanilgan. Moliyaviy hisobot shakllari quyidagilarni qamrab oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari haqidagi hisobot;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga binoan quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

- soliq organlariga;
- ta'sis hujjatlariga asosan tegishli mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hushjatlariga binoan boshka organlarga.

Moliya hisoboti hisobot yili boshidan boshlab qo'shib boruvchi tartibda jamlama ko'rinishida hisobot yilining har choragida taqdim qilinadi.

Davlat byudjet muassasalari o'zlarining choraklik va yillik hisobot shakllarini o'zlaridan yuqori turuvchi organlarga topshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko‘ra hisobot shakllarini taqdim etish muddatlarini Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi va tartibga solinadi. Shuningdek, mikrofirmalar, kichik tadbirkorlik subyektlari va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy hisobot shakllari “Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan soddalashtirilgan hisob yuritish va hisobot yuritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (20-son buxgalteriya hisobi milliy standarti) asosida soddalashtirilgan tartib tuzilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil va mavhum fikrlash kabi tadqiqot usullari qo‘llaniladi.

Tahlil va natijalar. Toshkent viloyati qulay joylashuvi nuqtai nazaridan respublikamizning iqtisodiy rivojlangan hududlari sirasiga kiradi. Viloyat yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha respublikada 2-o‘rinda, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmida va qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda 3-o‘rinda, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, qurilish ishlari hajmi, chakana savdo aylanmasi va tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha respublikada 2-o‘rinda turadi.

1-jadval

Toshkent viloyati bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar to‘g‘risida ma‘lumot (*fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz*)

1-yanvar holatiga

	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Toshkent viloyati	40 223	44 156	49 145	38 953	34 389
Nurafshon shahar	1 058	1 234	1 405	1 012	805
Olmalik shahar	1 798	1 884	2 057	1 575	1 399
Angren shahar	2 275	2 467	2 690	2 099	1 937
Bekobod shahar	1 208	1 373	1 525	1 314	1 154
Ohangaron shahar	922	1 048	1 242	1 067	757
Chirchiq shahar	2 164	2 479	2 782	2 514	2 301
Yangiyo‘l shahar	1 234	1 401	1 567	1 339	1 189
Oqqo‘rg‘on tumani	1 103	1 175	1 348	1 010	827
Ohangaron tumani	1 001	1 162	1 324	987	916
Bekobod tumani	1 051	1 215	1 393	1 199	921
Bo‘stonliq tumani	1 792	2 101	2 358	1 973	1 841
Bo‘ka tumani	1 054	1 244	1 416	1 105	918
Quyichirchiq tumani	1 316	1 410	1 520	1 164	1 038
Zangiota tumani	4 726	5 020	5 535	4 630	4 229
Yuqorichirchiq tumani	2 158	2 361	2 603	2 086	1 783
Qibray tumani	3 701	4 100	4 361	3 464	3 072
Parkent tumani	1 889	2 103	2 396	1 948	2 036
Piskent tumani	1 050	1 144	1 283	929	780

O'rtachirchiq tumani	2 452	2 403	2 646	1 838	1 511
Chinoz tumani	1 107	1 271	1 402	1 080	913
Yangiyo'l tumani	2 250	2 383	2 677	1 839	1 556
Toshkent tumani	2 914	3 178	3 615	2 781	2 506

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Yangi tashkil etilgan va faoliyatini endi boshlagan korxonalarni qo'llab-quvvatlash: maslahat, trening va moliyaviy vositalar ko'rinishida yangi korxonalarni qo'llab-quvvatlash ularning barqarorligini va umumiy iqtisodiy natijaga qo'shadigan hissasini oshirishi mumkin.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 358,1 mingta kichik korxona va mikrofirmalar faoliyat ko'rsatmoqda, bu har 1000 kishiga 12,1 birlikni tashkil etadi. 2024-yilda 77,0 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etildi (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno). O'z navbatida Toshkent viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 34,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalar faoliyat ko'rsatmoqda, 2024-yil davomida 6,8 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etildi.

2-jadval

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning mahsulot sotishdan tushgan sof daromadlari (milliard so'm)

Yillar	Daromad	Mutlaq o'zgarish	Nisbiy o'zgarish
2020	30 732,5	—	—
2021	32 821,6	+2 089,1	+6,8 %
2022	62 003,2	+29 181,6	+88,9 %
2023	80 261,9	+18 258,7	+29,5 %

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2021-yildan 2022-yilgacha daromadning 88,9% ga keskin o'sishi kuzatilmoqda, bu yo'nalishlarning kengayishi yoki talabning oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, 2023-yilda 29,5% gacha sekinlashgan bo'lishiga qaramasdan, daromad yuqoriligicha qolmoqda. Shuningdek, 2022-yilda daromadlarning sezilarli o'sishi tadbirkorlik faoliyatining kengayishi yoki bozor sharoitlarining o'zgarishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

3-jadval

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarda sotilgan mahsulot tannarxi (milliard so'm)

Yillar	Xarajatlar	Mutlaq o'zgarish	Nisbiy o'zgarish
2020	25 853,1	—	—
2021	27 311,1	+1 458,0	+5,6%
2022	53 376,6	+26 065,5	+95,5%
2023	70 607,9	+17 231,3	+32,3%

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Xarajatlar narxi daromad bilan parallel mos ravishda oshib borganligini ko'rishimiz mumkin, ayniqsa bu holat 2022-yilda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi yoki xarajatlar tarkibining o'zgarishini ko'rsatishi mumkin. 2022-yilda xarajatlarning keskin o'sishi daromadning o'sishidan oshib ketadi, bu esa rentabellikning pasayishini ko'rsatishi mumkin.

4-jadval

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarda soliq to'lashdan oldingi foyda (zarar) miqdori (milliard so'm)

Yillar	Soliqdan oldingi foyda	Mutlaq o'zgarish	Nisbiy o'zgarish
2020	698.2	—	—
2021	998.0	+299,8	+42,9%
2022	-355,9	-1 353,9	-135,7%
2023	654,4	+1 010.3	+283,9%

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2022-yilda tadbirkorlik subyektlari katta ehtimol bilan, ishlab chiqarish xarajatlarining keskin o'sishi sababli zarar ko'rdi. 2022-yildagi zararlar ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa xarajatlarning keskin oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, daromadlar 2023-yilda qayta tiklandi, bu xarajatlarni qisqartirish yoki daromadni oshirish bo'yicha boshqa choralar ko'rilganini ko'rsatadi.

5-jadval

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarda sof foyda (zarar) miqdori (milliard so'm)

Yillar	Sof foyda/zarar	Mutlaq o'zgarish	Nisbiy o'zgarish
2020	364.2	—	—
2021	607,7	+243,5	+66,9%
2022	-865,8	-1 473,5	-242,4%
2023	-7.0	+858.8	+99,2%

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

2022-yildagi yo'qotishlardan kelib chiqqan zarardan so'ng sof foyda 2023-yilda deyarli nolga qaytdi, bu moliyaviy holat barqarorlashganidan dalolat berishi mumkin. 2023-yilda soliqqa tortilgunga qadar foydaning tiklanishiga qaramay, sof foyda salbiy nisbatda bo'lib qoldi, bu esa yuqori soliq va boshqa majburiyatlarning yuqori bo'lganligini ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Umumiy tahlil natijasiga ko'ra 2022-yil daromad va tannarxning keskin o'sishi yuz berganligi, bu esa o'z navbatida yo'qotishlarga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin. 2023-yil soliqdan oldingi foydaning tiklanganligini ko'rishimiz mumkin, ammo sof foyda nisbati salbiy bo'lib qolganligini ko'rish mumkin.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'sishi kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy siyosatidagi o'zgarishlardan dalolat beradi.

Umumiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda daromadlarning o'sishi xarajatlarning sezilarli darajada oshishi bilan birga yuz bergan, bu esa yo'qotishlarga olib keldi.

Debitorlik qarzlarning o'sishi davom etayotganiga qaramay, daromadlar 2023-yilda tiklanishi kutish mumkin bo'ladi. Kreditorlik qarzlari korxonalarda 2022-yilda eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, ammo 2023-yilda pasayish yuz bergan, bu esa o'z navbatida moliyaviy barqarorlik mavjudligini ko'rsatishi mumkin. Korxonalarining eng qimmat obyektlarini aniqlash va ularni optimallashtirish uchun xarajatlarning tarkibi tahlilini o'tkazilishi lozim bo'ladi.

Debitorlik qarzlarni kamaytirish va likvidlikni yaxshilash uchun qarzidorlar bilan ishlashni kuchaytirish kerak. Kreditorlik qarzlarning keskin o'zgarishini oldini olish uchun majburiyatlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi 30.08.279-I-son Qonuni, 13.04.2016 y. (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi 474-II-son Qonuni, 24.04.2010 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son Qonuni, 11.08.2021 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida “gi Farmoni PF-158-son, 11.09.2023 y.
6. Жилкина, А. Н. Финансовый анализ: учебник и практикум для вузов / А. Н. Жилкина. - Москва: Издательство Юрайт, 2021. -285 с.
7. Казакова, Н. А. Финансовый анализ: учебник и практикум для вузов / Н. А. Казакова. 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Юрайт, 2024. - 490 с.
8. Bakieva I.A. Korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. I.f.d . diss. avtoreferati – T., 2024.
9. Kalandarova N.N. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda tahlil metodikasini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2019.
10. Kilichev A.A. Korxona moliyaviy siyosatini amalga oshirish amaliyotini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2021.
11. Xandamov S.F. Korxona moliyaviy siyosatini amalga oshirish amaliyotini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2021.
12. Xidirov N.G. "Sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish" Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati– Toshkent, 2022.
13. Xabibullayev J. Sh. "O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari". Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2018.

14. Hamraev A.X. Korxonalarda samarali kapital strukturasini shakllantirish yo'nalishlari. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati –Toshkent, 2024.
15. Bigel, K. S. Introduction to Financial Analysis. Open Textbook (open access), 2022.
16. «Financial Analysis - A Complete Guide» -Financial Analysis: A Complete Guide - 2021 Edition — London: (Independently published), 2020.- 311 c.
17. Фомин В.П. Формирование и анализ показателей финансового состояния организации / Фомин В.П., Татаровский Ю.А. / Москва : Юрайт, 2022. 284 с.

IV. Internet saytlari

18. <https://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali)
19. <http://www.imf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy veb sayti)
20. <https://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Statistika Davlat Agentligi rasmiy veb sayti)
21. <https://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)